

## ARAB TILIDAGI SPORT MAVZUSIGA DOIR REGISTERLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MASALALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653778>

**Temirov Jasur Nazirjonovich**

SamDChTI, assistent o‘qituvchisi

**Mardibekov Shohruh Zafar o‘g‘li**

SamDChTI, Sharq tillari fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada sport mavzusiga doir arabcha terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish asnosida yo‘liqadigan muammolar va bu muammolar uchun maqbul yechimlar, sport mavzusiga doir terminlarni tarjima qilish jarayonida metaforalarning ishlatilishi, tarjimon transliteratsiyasi, tarjimadagi ekvivalentlik, konnotatsiyaga va tarjimada uchraydigan boshqa masala va jarayonlar muhokama qilinib misollar orqali yoritib berilgan.*

**Tayanch so‘z va iboralar:** Ekvivalent, termin, register, leksik, semantik, konnotatsiya, ekvivalent, transliteratsiya, muqobil

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассмотрены проблемы, возникающие при переводе арабских терминов на узбекский язык, и возможные решения этих проблем, использование метафор в процессе перевода терминов на спортивную тематику, транслитерация перевода, эквивалентность в переводе, коннотация и другие вопросы и процессы, происходящие в переводе.*

**Базовые слова и словосочетания:** Эквивалент, термин, регистр, лексический, семантический, коннотация, эквивалент, транслитерация, альтернатива.

### ABSTRACT

*This article discusses the problems encountered in translating Arabic terms on sports into Uzbek and the optimal solutions to these problems, the use of metaphors in the translation of sports terms, translator transliteration, translation equivalence, connotation and other issues in translation and processes are discussed and illustrated with examples.*

**Keywords and phrases:** *Equivalent, term, register, lexical, semantic, connotation, equivalent, transliteration, alternative.*


## KIRISH

Ko‘plab bo‘lajak tarjimon talabalar so‘zlarni birma-bir tarjima qilish usulini tarjima deb tushunishadi va shu sababdan jiddiy muamoga yo‘liqishadi. Talabalarning bu boradagi muammosi shundaki, ular badiiy tarjimani barcha kontekstlarga taalluqli deb hisoblashadi va buning natijasida turfa xil tillar o‘rtasidagi ekvivalentlik hodisasini inobatga olishmaydi.

Darhaqiqat, tarjima sohasida maqbul registerni tanlash g‘oyat ahamiyatlidir. Agar register to‘g‘ri tanlanmasa, tarjima aslidek chiqmasligi mumkin, (Catford, 1996:90). Alaloqibat, badiiy tarjima qilishni maqsad qilgan talaba matnni so‘zma - so‘z yoki texnik tarjima qilish usuli orqali noaniq tarjima qiladi. Shuning uchun sport sohasidagi terminlarni tarjima qilishda badiiy tarjimadagi uslub ishlatilmaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Register-adabiy til uchun ishlatiladigan termin; Masalan diniy, ilmiy, huquqiy, yozma, og‘zaki hamda rasmiy til o‘rtasidagi farqlardir. (Leech & Short, 1981:80). Katfordning fikriga ko‘ra, register ijrochi va qabul qiluvchining tranzis xarakteristikasiga (ya‘ni aytilgan gapning kechiktirib bo‘lmaydigan holatiga) bog‘liq bo‘lgan lingvistik termindir (1965:84). U yana shuni ta‘kidlaydiki, tarjimada maqbul registerni tanlash g‘oyat ahamiyatlidir. Agar register to‘g‘ri tanlanmasa, tarjima aslidek chiqmasligi mumkin. Lyons (1981:292) registerni sotsolingvistik termin sifatida izohlaydi. U muayyan bir holatdagi register xilma-xillik va umumiy holatdagi stilistik xilma-xillik nafaqat so‘z bilish masalasigina emas, balkim talaffuzga ko‘ra anglashiladigan og‘zaki nutq va grammatikaga ta‘sir qilishini tushungan. Registerni tilning ijtimoiy voqelikdagi barcha xususiyatlarini qamrab olish maqsadida noaniq bir termin bilan atagan hamda o‘z fikrini bayon qilgan vaqtda noaniq ifoda etadigan muallifning manba matni aytilganidek tushunadi. Muxtasar qilib aytganda, tekstura semantik bog‘lanishlarni nazarda tutadi. Beykerning fikriga ko‘ra register tarjima jarayonining tonori, turi hamda sohasidagi turfa xillikdan yuzaga keladi va ma‘no anglatadigan terminlarning biridir. “Tonor, tur va soha” tushunchalari fanga Hatim va Masonlar tomonidan kiritilgan. (1990:39) Chunki standart, nostandart, ijtimoiy, temperik, dialektik hamda geografik turfa xillikdan foydalanadigan tilni tashkil etuvchi registerning bu uch atamasi inson tomonidan foydalanadigan tilni ko‘rsatadi. Quyidagi birinchi chizmada (1) har bir parametrlarning mufassal bayoni hamda foydalanuvchining vizual modeli taqdim qilingan.



Chizma (1): Turfa xillik: tadbiq va iste'molchi

(Bell, 1991:185) dan olindi

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Badiiy tarjima xuddiki lug‘atdan foydalangan holda badiiy ma’no beradigan so‘zlarni olish jarayonidir. Lekin, til nishoni bo‘lmish grammatika muayyan kontekstdagi so‘zlar egalik qiladigan kichik farq va konnotatsiyaga qaramasdan ahamiyatga molikdir. (Hervey & Higgins, 2002:13). (Ghazala, 1995:6) dan olingan namunaga qaraylik:

<u>Arabcha matn</u>	<u>Og‘zaki tarjima</u>	<u>Badiiy tarjima</u>
هذا الرجل ذو شأن عظيم كف عن اللف والدوران يقوم بزيارة	Bu kishi to‘pni olib yuribdi. Aravani bo‘sh sudrashni to‘xtating. Keb keting	Ishtirokchi maydonda olg‘a to‘p surmoqda Aravani quruq olib qochishni bas qiling. Mehmonimiz bo‘ling

Badiiy tarjima manba matnida ko‘rsatilmagan so‘z qochirimlari va yashirin iboralarni tarjima matnga kiritadigan iboralar hamdir. Buning natijasida, badiiy tarjima shaklni saqlaydi biroq ma’noni tamoman qo‘ldan boy beradi.

Biroq, badiiy tarjima turg‘un hisoblangan idioma va iboralarga kelganda ba’zida ish berib qolishi mumkin. Farghal & Shunnaq (1999:13) dan olingan galdagi namunaga qarang :

<u>Matn</u>	<u>Badiiy tarjima</u>
دموع التماسيح الحرب الباردة	Timsoh yig‘lab o‘tirar edi. Sovuq urush

Tarjimon transliteratsiya va badiiy tarjimadan o‘zni saqlagan holda manba matniga mos ekvivalentni to‘g‘ri tanlay olishi kerak. (The African Football, (2009:4) and World Soccer Magazine, 2007:5:) dan olingan misolga diqqat qarating:

<u>Badiiy matn</u>	<u>Erkin matn</u>	<u>Tarjima matn</u>
في الشوط الثاني من المباراة قام ليفربول بخمس وعشرون زيارة للصندوق.	وفي الشوط الثاني من وصل ليفربول المباراة الى منطقة الجزاء خمسا وعشرين مرة.	Ikkinchi taymda Liverpool yigirma besh natijani qo‘lga kiritdi.
سجل الهدف الثالث من ضربة موزة.	جاء الهدف الثالث من تسديدة قوسية.	Uchinchi gol banancha zarba orqali qayd etildi.

Quyida tahlil qilingan jadvallar sport mavzusiga doir terminlarni taqdim etadi.  
1. يتألف وسط الفريق العراقي من كل من هوار على الجهة اليسرى وكريم على الجهة اليمنى وكرار كلاعب وسط مهاجم وشبه الوسط نشأت أكرم.

((1992). *World Soccer Magazine*. Jimmy Hill Publications, Liverpool: England).

**1-jadval:**

Nom	Variantlar	Mavzu raqami	Guruh
شبه الوسط	Yarim himoyachi	4	A
	To‘p suruvchi	3	B
	Katta futbolist	3	C

**Munozara:**

Tarjimada “شبه الوسط” ma’nosini beruvchi ekvivalent berilmagan, aksincha buni izohlash uchun bu sohadan xabari yo‘q tarjimon uni yarim himoyachi, to‘p suruvchi yoki katta futbolist deya nafaqat badiiy balkim og‘zaki uslubni ham ishlatgan holda tarjima qilishga urungan. Aslida bu yerdagi “شبه الوسط” yarim markaziy qismda turib ish olib boradigan sportchini anglatmoqda. Shu sabab uni biz “hujumchi” deya tarjima qilsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tarjima esa quyidagicha:

- Iroq stadionining o‘rtasi chap tomondan Havar, o‘ng tomondan Karemlarni ikkiga bo‘lib turibdi, Karar yugurib ketmoqda, hujumda esa Nasha’at Akrom

2. اجتازت الكرة المرمى بعد أن لامست الحاجز البشري.

((1998). *The Baghdad Observer*. The Iraqi Culture and Information Ministry, Baghdad: Iraq.)

**2-jadval:**

Mavzu	Tarjima	Mavzu raq.	Guruh
الحاجز البشري	Qarshilik	3	A
	To‘siq	3	B
	G‘ov	4	C

**Munozara:**

“الحاجز البشري” birikmasiga ekvivalent sifatida “qarshilik” so‘zini keltirishimiz mumkin. Faqatgina “A” guruh muqobil variantni taqdim eta olgan. “B” hamda “C” variantlardagi tarjima ham xuddi shu ma’noni beradi, biroq bu so‘zlar sport doirasida ko‘p hollarda ishlatilmaydi. Chunki “to‘siq” va “g‘ov” so‘zlari sport mavzusiga aloqador register emas. Tarjima quyidagicha bo‘ladi:

- Qarshilikni yorib o‘tgach to‘p darvozani ishg‘ol etdi..

3. جاء الهدف الرابع للفريق الأرجنتيني من كرة ثابتة.

((2001). *The Baghdad Observer*. The Iraqi Culture and Information Ministry, Baghdad: Iraq.)

**3-jadval:**

Mavzu	Tarjima	Mavzu raqami	Guruh
كرة ثابتة	O‘lik to‘p	5	A
	Jonsarak to‘p	3	B
	Sekin kelgan to‘p	2	C

### Munozara:

Metaforalarni ishlatish tilda keng uchraydi. Shu sohalardan bir sportda ham. Bu yerda keltirilgan “كرة ثابتة” birikmaning o‘zbek tilidagi ekvivalentini topishda biz “sekin” so‘zini ishlatishimiz mumkin. Arab tilidagi bu birikma to‘pning harakati susayganini ifoda etishlik uchun keladi

Darhaqiqat, metaforalar tilning o‘ziga xos ruhiyatining ifodasi va ular haqiqiy muammo, ayniqsa bir qancha jihatlarga ko‘ra farq qiluvchi “O‘zbek va Arab” tillaridagi tarjimalarda bu yaqqol seziladi. Shuning uchun “A” va “B” variantlardagi tarjima arab tilidagi birikmaning mazmunini anglatsada, stilistik jihatdan xato hisoblanadi. Quyida tarjima keltirilgan:

- To‘p sekingina kelib Argentina hisobiga to‘rtinchi golni qayd etdi.

4. يتقدم بيكر بفارق 15-صفر.

(2007). World Soccer Magazine. Jimmy Hill Publications,

### Table No. 4:

Mavzu	Tarjima	Mavzu raqami	Guruh
صفر	nol	3	A
	nol hisobda	4	B
	-----	3	C

### Munozara:

Nol so‘zi turli xil tillarda xar hil aytiladi, ayniqsa sport sohasida. Masalan kriket o‘yinidagi nol hisob ingliz tili “duck” so‘zi bilan beriladi, tennisda esa bu so‘z “love” so‘zi bilan beriladi. Arab tiliga kelsak bu so‘zni oddiygina qilib “صفر” deb atashadi. Xuddi shu jihatga ko‘ra tarjimon ba’zida tarjima jarayonida chalkashliklarga duch kelib qolishi mumkin. Quyida tarjima keltirilgan:

- Beker 15 ga nol hisobda peshqadamlik qilmoqda.

5. إن الهدف الذي أحرزه كليمرسون برأسه مرت الكرة فيه من فوق ديدا.

(2007). *World Soccer Magazine*. Jimmy Hill Publications,

### 5-jadval:

Mavzu	Tarjima	Mavzu raqami	Guruh
ضربة رأسية	Bosh zarba	4	A



	Bosh orqali zarba	3	B
	Boshdagi zarba	3	C

### **Munozara:**

“ضربة رأسية” futbol mavzusiga doir register bo‘lib, bu orqali o‘yinchining boshi orqali (boshqa tana a‘zosi ishtirok etmaydi) yo‘llagan zarbasi tushuniladi. Quyida tarjima keltirilgan:

- Klemirsunning boshi orqali yo‘llagan zarbasi Diydaning ustidan oshib o‘tdi.

6. هو جيد في استخدام المضرب وليس في التقاط الكرة

### **6-jadval:**

Mavzu	Tarjima	Mavzu raqami	Guruh
استخدام المضرب	To‘pni urish	4	A
	To‘pni qaytarish	3	B
	To‘pga zarba berish	3	C

### **Munozara:**

“استخدام المضرب” birikmasi o‘yin jarayonida to‘pni kriket tayog‘ida qaytarish ma‘nosini anglatadi, ayniqsa bu ibora beyzbol va kriketda ishlatiladi. Shuning uchun, tarjimada “استخدام” so‘zining “ish, xizmat” ma‘nosiga murojaat qilinmaydi. Aksincha ikki so‘zning muqobili sifatida “to‘pni qaytarmoq” birikmasi orqali ifoda etsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyida tarjima keltirilgan:

- U to‘pni ushlab qolishdan ko‘ra uni qaytarishda abjir.

### **TAKLIF VA XULOSALAR**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki:

1. Ko‘pgina holatlarda keraksiz o‘rinda badiiy tarjimadan foydalanilgan va bu ba‘zi bir kamchiliklarni yuzaga chiqishiga sababchi bo‘lgan.

2. Maqolada sportga doir atamalar misol tariqasida keltirilmagan, biroq sport sohasiga doir bo‘lgan birikmalarni o‘z ichiga olgan. Bu holatga sohaga doir yetarli bilim mavjud emasligi, boz ustiga ikki til o‘rtasidagi ma‘lum bir mutanosiblik sababidan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas albatta.

3. Ba‘zi bir o‘rinlarda so‘zlarni tarjima qilish o‘rniga ularni transliteratsiya qilishlik afzal ko‘rildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Baker, M. (1992). *In Other Words: A course book on Translation*. London: Routledge.
2. Bassnett, S. & Lefevere, A. (1992). *Translation History Culture: A Source Book*. USA: Routledge.

3. Bassnett, S. (2002). *Translition Studies*. USA: Routledge.
4. Bell, R. T. (1991). *Translation and Translating: Theory and Practice*. London: Longman Group Ltd.
5. Catford, J. C. (1965). *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford: Oxford University Press.
6. Catford, J. C. (1965). *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford: Oxford University Press.
7. Cooper, D. L. (1999). *The Golden Rule of Interpretation*. Hull Drive: Challenge Publication.
8. Farghal, M. & Shunnaq, A. T.(1999). *Translation With Reference to English and Arabic: A Practical Guide*. Jordan: Dar Al-Hilal for Translation.
9. Finch, G. (2000). *Linguistic Terms and Concepts*. London: Macmillan Press Ltd.
10. Ghazala, H. (1995). *Translation as Problem and Solutions*. Beirut: Darwa Maktabat Al-Hilal.
11. Halliday, M. A. K. & Hassan, R. (1976). *Cohesion in English*. USA: Longman Group Ltd.
12. Hatim, B. & Mason, I.(1990). *Discourse and the Translator*. London: Longman.
13. Hatim, B. (1997). *Communication Across Cultures*. Great Britain: T. J. Press Ltd, Padstow, Cornwall.
14. Hervey, S., Higgins, I. & Loughridge, M. (1995). *Thinking German Translation*. London: Routledge.
15. Hornby, S. (1988). *Translation Studies: An Integrated Approach*. Amesterdam: John Benjamins.
16. Joos, M. (1962). *The Five Clocks*. New York: Harcourt, Brace & World.
17. Larson, M. L. (1984). *Meaning-based Translation: A Guide to Cross-language Equivalence*. USA: University Press of America, Inc.
18. Leech, G. N. & Short, M. H. (1981). *Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose*. London: Longman Group Limited.
19. Lyons, J. (1981). *Language and Linguistics*. Cambridge: Cambridge University Press.
20. Mcguire, S. B. (1980). *Translation Studies*. London: Methuen & Co. Ltd.
21. Newmark, P. (1982). *Approaches to Translation*. Oxford: Pengamon.
22. Nida, E. Taber, C. R. (1969). *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: E. J. Brill.
23. Quirk, R. & Stein, G. (1990). *English in Use*. Harlow: Longman.



24. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
25. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching Italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.
26. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
27. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand*.
28. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
29. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In *Mat. International scientific and creative forum "Youth in science and culture of the XXI century"*. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
30. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. *Вестник Челябинского государственного университета*, (2 (256)), 122-125.
31. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. *Общество и инновации*, 2(2), 111-117.
32. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.* (pp. 229-231).
33. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80)), 5-10.
34. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (78)), 11-18.
35. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).

36. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
37. Tuhtasinov, Ithom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
38. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
39. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
40. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданият мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
41. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
42. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
43. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
44. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
45. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
46. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
47. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
48. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).

49. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.– 1985,-с22.
50. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
51. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.
52. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).
53. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 10-13.